

BOSHLANG'ICH SINFLARDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH: QK TOPSHIRIQLAR ASOSIDA YONDASHUV

Mirzaxmedova Muxnisa Abdullajon qizi

*NamDPI Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(boshlang'ich ta'lim) 1- bosqich magistranti*

muxnisa365@gmail.com

Asqarova Manzura Avazbekovna

*Namangan davlat pedagogika instituti dotsenti,
Pedagogika fanlari doktori (DSc)*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda raqamli texnologiyalarni tatbiq etish orqali savodxonlikni rivojlantirish masalasi ko'rib chiqilgan. Xususan, Qiyosiy Kompetensiya (QK) topshiriqlari asosida o'quvchilarning funksional savodxonligini oshirishga qaratilgan didaktik va metodologik yondashuvlar tahlil qilingan. Ilmiy tadqiqotlar va xalqaro tajribalar asosida raqamli vositalarning o'qitish samaradorligiga ta'siri asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: raqamli ta'lim, boshlang'ich sinf, QK topshiriqlari, raqamli pedagogika, interaktiv texnologiyalar.

РАЗВИТИЕ ГРАМОТНОСТИ С ПОМОЩЬЮ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ: ПОДХОД, ОСНОВАННЫЙ НА ЗАДАЧАХ СОВМЕСТНОГО ДЕЛА

Аннотация: В данной статье рассматривается вопрос развития грамотности в начальных классах путем внедрения цифровых технологий. В частности, проанализированы дидактические и методические подходы, направленные на повышение функциональной грамотности учащихся на основе заданий сравнительной компетентности (СП). На основе научных исследований и международного опыта обосновано влияние цифровых инструментов на эффективность обучения.

Ключевые слова: цифровое образование, начальный класс, задания СП, цифровая педагогика, интерактивные технологии.

DEVELOPING LITERACY THROUGH DIGITAL TECHNOLOGIES IN PRIMARY GRADES: A JV TASK-BASED APPROACH

Annotation: this article addresses the issue of developing literacy through the implementation of digital technologies in the primary classes. In particular, didactic and methodological approaches aimed at improving the functional literacy of students have been analyzed on the basis of the tasks of Comparative competence (QK). On the basis of scientific

research and international experiments, the influence of digital tools on the effectiveness of training is based.

Keywords: *digital education, primary class, qk assignments, digital pedagogy, interactive technologies.*

KIRISH

“Har bir soha raqamli texnologiyalar bilan hamohang bo‘lmasa, mamlakat rivojlanmaydi” - Shavkat Mirziyoyev

Xalqaro miqyosda olib borilayotgan PISA (Programme for International Student Assessment) tadqiqotlari natijalari raqamli savodxonlikni rivojlantirish zaruriyatini yanada yaqqolroq ko‘rsatdi. Masalan, 2018-yilgi PISA hisobotiga ko‘ra, o‘quvchilarning raqamli matnlar bilan ishlash kompetensiyasi ularning umumiy o‘qish savodxonligi darajasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, COVID-19 pandemiyasi davrida masofaviy ta’lim shaklining keng joriy etilishi raqamli ta’lim vositalaridan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirishni ta’lim siyosatining markaziga olib chiqdi (World Bank, 2020).

O‘zbekiston Respublikasida ham raqamli ta’limni rivojlantirishga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, “Raqamli ta’lim” konsepsiyasi (2020–2030 yillar) va 2019-yilda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun raqamli kompetensiyalarni shakllantirishni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilab berdi. Boshlang‘ich ta’limda savodxonlikni rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning roli tobora ortib borayotgani, bu esa pedagogik yondashuvlarni modernizatsiya qilishni va Qiyosiy Kompetensiya (QK) topshiriqlari asosida ta’lim jarayonini boyitishni talab etmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalarning ta’lim sohasiga integratsiyalashuvi bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar savodxonlik tushunchasining tubdan qayta talqin qilinishiga sabab bo‘ladi. An’anaviy savodxonlik faqat o‘qish va yozishni o‘z ichiga olgan, hozirgi kunda bu tushuncha funksional va raqamli savodxonlik ko‘rinishida kengaytirilib, o‘quvchilarning zamonaviy muhitda mustaqil fikrlashi, axborotni tahlil qilishi va qo‘llay olishi bilan bog‘liq bo‘ladi.

PISA tadqiqotlari ham raqamli savodxonlikning o'quvchilarning umumiy o'qish ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. 2018-yilgi hisobot natijalariga ko'ra, raqamli matnlar bilan ishlash ko'nikmasi yuqori bo'lgan o'quvchilar an'anaviy matnlarni o'qish natijalarida ham yuqori ko'rsatkichlarga erishiladi. Bu esa, raqamli vositalarning savodxonlikni shakllantirishdagi rolini tasdiqlaydi.

O'zbekiston kontekstida olib borilayotgan tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, raqamli texnologiyalarni boshlang'ich ta'limda qo'llash bo'yicha sezilarli ijobiy siljishlar mavjud. Xususan, "Raqamli ta'lim konsepsiyasi (2020–2030)" va yangi milliy o'quv dasturlarida (2022) o'quvchilarning funksional savodxonligini oshirish uchun raqamli vositalardan foydalanish ko'zda tutilgan. Bilimlar va innovatsiyalar agentligi (2023) tomonidan olib borilgan monitoring natijalari boshlang'ich sinf o'quvchilarining raqamli matnlar bilan ishlash qobiliyatlari ortib borayotganini ko'rsatmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Raqamli texnologiyalar orqali savodxonlikni oshirish bo'yicha bir qator ilg'or tashabbuslar dunyo mamlakatlarida amalga oshirilmoqda. Bu borada qator rivojlangan davlatlar tutgan yo'llarni ko'rib chiqamiz.

Finlyandiya: Ta'lim tizimi raqamli texnologiyalar integratsiyasiga qaratilgan. Boshlang'ich ta'lim bosqichidan boshlab o'quvchilar raqamli matnlar bilan ishlash, dasturlash asoslari va onlayn o'qish strategiyalariga o'rgatiladi (Sahlberg, 2011).

Avstraliya: Multimodal savodxonlik (multiliteracy) kontsepsiyasi asosida raqamli o'qish-yozish ko'nikmalari rivojlantirilmoqda. 2019-yilda qabul qilingan National Literacy Learning Progressions hujjati o'qish va yozishni raqamli kontekstda rivojlantirishni belgilab berdi.

AQSh: ISTE (International Society for Technology in Education) standartlari asosida boshlang'ich ta'limda raqamli savodxonlik va media savodxonlikni shakllantirish majburiy elementga aylangan.

Ushbu tajribalar ko'rsatadiki, raqamli pedagogika va QK topshiriqlari orqali ta'limda o'quvchilarning faol ishtirokini oshirish va ularning mustaqil bilim olish qobiliyatini rivojlantirish mumkin.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda raqamli ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha muhim qadamlar tashlandi, quyida ularni bir qator ko'rib chiqamiz. "Raqamli O'zbekiston – 2030" dasturi doirasida maktablarda raqamli texnologiyalarni joriy etish ishlari keng ko'lamda olib borilmoqda. 2020-yil 6-oktabrda qabul qilingan "Boshlang'ich ta'lim davlat ta'lim standarti"da o'quvchilarda funksional savodxonlik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish asosiy vazifa sifatida belgilangan. "Milliy o'quv dasturi" (2022) doirasida o'qish fanida raqamli matnlar bilan ishlash, axborotni izlash va sharhlash topshiriqlari kiritilgan. Shuningdek, Bilimlar va innovatsiyalar milliy agentligi tomonidan boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun raqamli savodxonlik bo'yicha maxsus kurslar va malaka oshirish dasturlari joriy etildi.

QK topshiriqlari asosida ta'lim berish o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini real hayotiy vaziyatlarda qo'llash malakasini rivojlantiradi. Raqamli texnologiyalar bu jarayonni yanada samarali amalga oshirish imkonini beradi:

- Matnni tahlil qilish, asosiy g'oyani aniqlash va ma'lumot manbalarini taqqoslash bo'yicha onlayn mashqlar (Google Classroom, Moodle platformalarida);
- Virtual kutubxonalar va audiokitoblar orqali mustaqil o'qish ko'nikmalarini shakllantirish;

Raqamli o'yinlar va viktorinalar orqali tezkor va chuqur o'zlashtirishni ta'minlash (Kahoot!, Quizizz).

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki: Raqamli texnologiyalardan foydalangan holda o'qitish o'quvchilarning o'qish qobiliyatini 17–20% ga oshiradi (Li & Ma, 2010). Savodxonlik mashg'ulotlariga gamifikatsiya elementlarini joriy etish o'quvchilarning motivatsiyasini 30% ga oshiradi (Deterding et al., 2011). O'zbekistonda 2022-yilda o'tkazilgan "Raqamli ta'lim monitoringi" tadqiqoti natijalariga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilarining 48% raqamli matnlar bilan mustaqil ishlash qobiliyatiga ega ekanligi aniqlangan (Bilimlar va innovatsiyalar agentligi, 2023).

"Raqamli Savodxonlik Rivojlantirish Platformasi (RSRP)" amaliy model tuzib chiqsak:

- **Modul 1:** Matn bilan ishlash (o'qish, annotatsiya qilish, xulosa chiqarish);
- **Modul 2:** Audiovizual materiallar asosida tahlil va muhokama;

— **Modul 3:** Virtual testlar va QK topshiriqlari orqali savodxonlikni mustahkamlash;

— **Modul 4:** Gamifikatsiyalangan rag'batlantirish tizimi (belgilar, mukofotlar).
Natijalar:

Ushbu model asosida o'qitish o'quvchilarning o'qish-yozish qobiliyatini 6 oyda o'rtacha 15–18% ga oshirish imkonini beradi (modellashtirish natijalariga ko'ra).

Raqamli texnologiyalarning savodxonlikka ta'sirini tahlil qilish

Raqamli texnologiya turi	Ta'limdagi asosiy funksiyasi	O'quvchiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar	Misollar
Interaktiv o'quv platformalari	O'qish va matn tahlili ko'nikmalarini rivojlantirish	Mustaqil fikrlash, axborot tahlili	Google Classroom, Moodle
Audiokitoblar va podkastlar	Eshitib tushunishni rivojlantirish	Diqqatni jamlash, eslab qolish	Audible, Storynory
O'quv o'yinlari (gamifikatsiya)	Motivatsiyani oshirish	Rag'batlantirish, raqobat ruhini shakllantirish	Kahoot!, Quizizz
Virtual kutubxonalar	Mustaqil bilim olish	Tanlov imkoniyati, qiziqish uyg'otish	Z-Library, Open Library

Raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi va boshlang'ich sinflarda savodxonlik darajasi o'rtasidagi bog'liq bir grafik chizsak. Grafikda raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi (%) va o'quvchilarning savodxonlik darajasi (%) o'rtasidagi bog'liqlik chiziqli regressiya modeli asosida ko'rsatildi. Amaliy ma'lumotlar (nuqtalar shaklida) va ular orqali chizilgan regressiya chizig'i aniq ijobiy korrelyatsiyani tasdiqlaydi:

Trend chizig'i tenglamasi:


$$y=0.6x+30y$$

Bu tenglama shuni anglatadiki, raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi har 1% ga oshganda, savodxonlik darajasi o'rtacha **0.6%** ga ortadi. Chiziqli

regressiya modeli yordamida olingan trend chizig'i savodxonlik va raqamli vositalar o'rtasida bevosita kuchli bog'liqlik mavjudligini tasdiqlaydi. Bu munosabat kognitiv ta'lim nazariyalariga ham mos keladi:

- Vigotskiyning ijtimoiy rivojlanish nazariyasi (1978) ga ko'ra, o'quv jarayonida yangi vositalardan foydalanish o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish uchun muhim omil sanaladi.
- SAMR modeli (Puentedura, 2006) bo'yicha, raqamli texnologiyalarni samarali joriy etish o'qitish jarayonini transformatsiya qiladi va yuqori darajadagi o'quv natijalariga olib keladi.
- OECD PISA tadqiqotlari (2018) natijalariga ko'ra, raqamli o'quv muhitlari o'quvchilarning o'qish va matnni tahlil qilish qobiliyatlarini oshirishda sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Raqamli texnologiyalardan foydalanish va savodxonlik darajasi o'rtasidagi ilmiy bog'liqlik



Raqamli texnologiyalardan foydalanishning 0% dan 100% gacha o'sishi savodxonlik darajasining 30% dan 90% gacha ortishiga olib keladi. Raqamli o'quv vositalari va metodikalari boshlang'ich ta'limdagi savodxonlikni oshirishda sezilarli darajada samaradorlik ko'rsatadi. Bu natijalar boshlang'ich sinf o'qituvchilari va

ta'lim siyosatini belgilovchilarga raqamli texnologiyalarni kengroq tatbiq etish zaruratini ko'rsatadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Boshlang'ich ta'limda savodxonlikni raqamli texnologiyalar orqali rivojlantirish bugungi kunda ta'lim tizimining eng dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston va xorijiy davlatlar tajribasining qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalarning to'g'ri integratsiyasi ta'lim sifatini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli texnologiyalarni boshlang'ich ta'lim jarayoniga integratsiyalash orqali funksional savodxonlikni rivojlantirish zamonaviy ta'limning dolzarb ehtiyojiga aylangan. Xalqaro va milliy tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli o'qitish vositalari orqali o'quvchilarning mustaqil o'qish, tanqidiy fikrlash va axborotni qayta ishlash ko'nikmalarini shakllantirish mumkin. Qiyosiy kompetensiya topshiriqlaridan foydalanish esa ta'lim samaradorligini oshirib, real hayotiy vaziyatlarda bilimlarni amaliy qo'llashni ta'minlaydi.

O'zbekiston sharoitida ham boshlang'ich sinflarda raqamli savodxonlikni oshirishga qaratilgan islohotlar va tashabbuslar boshlangan bo'lsa-da, bu sohada tizimli tadqiqotlar va amaliy innovatsion yechimlarga ehtiyoj mavjudligi kuzatilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev asari.
2. D.A.Muminova, M.N.Qo'ldasheva, N.Z.To'rayeva, Z.B.Yulchiyeva. Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi. Darslik. Namangan. 2023
3. UNESCO (2020). "Teaching and Learning: Achieving Quality for All". Global Education Monitoring Report.
4. OECD. (2019). PISA 2018 Results: Combined Executive Summaries.
5. UNESCO. (2022). Understanding Literacy. www.unesco.org
6. Walsh, M. (2010). Multimodal Literacy: What does it mean for classroom practice?. Australian Journal of Language and Literacy.
7. Deterding, S., Dixon, D., Khaled, R., & Nacke, L. (2011). Gamification: Toward a Definition. Proceedings of CHI 2011.
8. Ciampa, K. (2012). ICANREAD: The effects of an online reading program on grade 1 students' engagement and comprehension strategy use. Journal of Research on Technology in Education.

8. Siemens, G. (2013). Learning Analytics: The Emergence of a Discipline. American Behavioral Scientist.